

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>	
"BOBURNOMA"ning forscha misralari .....	91
<b>S.Halimov</b>	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....	95
<hr/>	
TILSHUNOSLIK	
<b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
<b>G.Davlyatova</b>	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	107
<b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>	
"SADOI TURKISTON" gazetasi va undagi bir maqola xususida .....	114
<b>G.Raximova</b>	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....	120
<b>J.Ibragimov</b>	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....	123
<b>N.Xasanboyeva</b>	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....	127
<b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....	130
<b>M.Qurbanova</b>	
O'zbek tilshunosligida okkazional birliklar tadqiqi .....	134
<b>L.Masharipova</b>	
Til va madaniyat .....	139
<b>Sh.Jumaqulova</b>	
O'zbek tilida "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....	144
<b>X.Maripova</b>	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....	147
<b>A.Mattiiev</b>	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....	151
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z ma'nosi xususida .....	154
<b>D.Gaziyeva</b>	
Funksional va stilistik jihatdan media tili .....	159
<b>U.Yokubbayeva</b>	
"Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qo'llangan "yashil" leksemasining semantik takomili .....	164
<b>N.Umarova, M.Abduolimova</b>	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....	170
<hr/>	
MATEMATIKA	
<b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>	
$F_{0;3;3}^{2;2;2}[x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyani qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi .....	173
<b>D.Usmonov, A.Urinov</b>	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....	185

---

FIZIKA – TEXNIKA

<b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi .....	193

## STRUKTUR TILSHUNOSLIKNING NAZARIY ASOSLARI

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СТРУКТУРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

### THEORETICAL FOUNDATION OF STRUCTURAL LINGUISTICS

**Ganiyeva Dildora Azizovna<sup>1</sup>, Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi<sup>2</sup>**

**<sup>1</sup>Ganiyeva Dildora Azizovna**

**<sup>2</sup>Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi**

– Farg'ona davlat universiteti, f.f.f.d., dotsent.

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

#### *Annotatsiya*

Mazkur maqlada struktur tilshunoslikning jahon tilshunosligida paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti haqida fikr yuritiladi. Maqlada mualliflar sistemaviylik o'zi nima, system tadqiqotlarning tarixiy negizi qanday shakllangan kabi savollarga batafsil javob beradilar va ushbu soha rivojiga hissa qo'shgan tilshunos olimlarning ilmiy xulosalari muhokama qilinadi. Maqlada mazmuniy maydon-struktur tilshunoslikning asosiy konsepti sifatida tahvilga tortiladi va uning lingvistik xususiyatlari yoritib beriladi. Mualliflar o'zbek tilshunosligidagi semantik maydon nazariysi borasidagi izlanishlar va ularning ilmiy natijalari haqida so'z yuritadilar.

#### *Аннотация*

В данной статье рассматривается возникновение и развитие структурной лингвистики в мировой лингвистике. Автор подробно отвечает на такие вопросы, как что такое систематика, как формируется историческая основа системных исследований, а также обсуждает научные открытия лингвистов, внесших свой вклад в развитие этой области. В статье анализируется семантическая структура поля как базовое понятие языкоznания и выделяются ее лингвистические особенности. Автор обсуждает исследования по теории семантических полей в узбекском языкоznании и их научные результаты.

#### *Abstract*

This article discusses the emergence and development of structural linguistics in the world linguistics. The author provides detailed answers to questions such as what is systematics, how the historical basis of system research is formed, and discusses the scientific findings of linguists who have contributed to the development of this field. The article analyzes the semantic field-structure as a basic concept of linguistics and highlights its linguistic features. The author discusses the research on the theory of semantic fields in Uzbek linguistics and their scientific results.

**Kalit so'zlar:** mazmuniy maydon, til birliklari, semiotika, system tilshunoslik, strukturalizm, semantik maydon, maydon elementlari, paradigm, ochiq sistema, yopiq sistema, belgilər sistemasi.

**Ключевые слова:** семантическое поле, языковые единицы, семиотика, системная лингвистика, структурализм, семантическое поле, элементы поля, парадигма, открытая система, закрытая система, система знаков.

**Key words:** semantic field, language units, semiotics, system linguistics, structuralism, semantic field, field elements, paradigm, open system, closed system, signs system.

## KIRISH

Mazmuniy maydon lingvistik birliklar ifoda etgan tushunchalarning umumiyligi orqali vujudga keladi. Bir umumiylar ostida birlashgan lingvistik birliklar turli sathlarga mansubligi bilan namoyon bo'ladi.

Jahon tilshunosligida til birliklarini maydon nuqtai nazardan tadqiq qilishga doir salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda mazmuniy maydonning til sistemasidagi ahamiyati, uni tashkil etuvchi til birliklari tilning turli sathlarida aks etishi va ularning nutqiy jarayonda voqelanishi xususiyatlari o'rganilgan.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning aksariyati sistemaviylik prinsipi qurilyapti. Ilmiy izlanish davomida o'rganilayotgan sohaga tizimli yondashuv tadqiqotchiga guruhlarga bo'lib o'rganish hamda mazmuniy guruh yoki turlarga mansub birliklarning o'xshashlik va tafovutlarini aniqlashga keng imkon yaratadi.

Tilshunoslikda ham lisoniy birliklarni turli mazmuniy guruhlarga bo'lgan holda tematik asosda o'rganish fanga yangi ilmiy xulosalarni taqdim etmoqda.

Til tadqiqiga tizimli yondashuvning tarixiy ildizlari struktur tilshunoslik vakillarining mazkur yo'nalishda taqdim etgan nazariy va amaliy fikr-mulohazalariga borib taqaladi. Ferdinand de Sossyur struktur tilshunoslikka poydevor yaratgan olim sifatida sharaflanadi va tilni "belgilər sistemasi" sifatida ta'riflashi esa undan keyingi tadqiqotchilar uchun bosh g'oya sifatida xizmat qildi.

## TILSHUNOSLIK

Darhaqiqat, ilm ahli orasida tadqiqot ishini ilmiy asoslashda shveysariyalik tilshunos olim F. de Sossyur nomini e'tirof etmagan vakil bo'lmasa kerak.

Sossyur tilga shakl nisbatini berdi va uni sinxronik hamda diaxronik tarzda tadqiq qilish mumkinligi haqidagi ilmiy qarashlarini e'lon qildi. Eng muhimi tilni bir butun sistema ekanligini va uning tarkibidagi elementlar tenglik asosida o'zaro mavjud ekanligini fanga ma'lum qildi. Mazkur qarashlar tilshunoslikda yangi davr boshlanishiga zamin yaratdi. Olimning ilmiy xulosalari keyingi avlod struktur tilshunoslari uchun dasturulamal vazifasini o'tadi. Yangi lingvistik qonuniyatlar F.de Sossyur nazariyalari bag'rida rivojlana boshladi. Garchi Sossyur ta'limotiga ko'ra tilni sinxron tabiatni uchun sistema xos degan ta'rifi mukammal nazariya sifatida tan olinsa-da, shu sistemaning yopiq deya ta'kidlaganligi bugungi kunda o'z isbotini topmadidi. Ya'ni, tilda yopiq sistemalar bilan birga ochiq sistemalar ham mavjud ekanligi oydinlashdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tillarning semantik tuzilishini sistemaviy tahlil etish esa bir necha yillardan so'ng olimlar e'tiboriga tushdi hamda nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlandi. E'tirof etish zarurki, sistem tadqiqot usuli tilshunoslikning aniq va tabiiy fanlar bilan o'zaro integratsiyasi natijasi sifatida ko'rsatishimiz mumkin. O'rganilayotgan sohaga sistematik yondashishning tilshunoslikka kirib kelishi yer yuzidagi boshqa fanlarni sistemaviy asosda tadqiq qilish rivojlanishi asosida yuzaga kelgandi.

Shu o'rinda lingvistik birliklarning shakl va mazmuniy tomoniga sistemaviy tamoyillarning qo'llanilishi lingvistik semantikaning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.[4,5] Til birliklarning ma'noviy xususiyatlarini sistema tarzida tahlilga tortish jarayonida fanda semantik maydon termini ham paydo bo'ldi va mazkur atama ko'plab tilshunos olimlarning o'rganish obyektiga aylandi.

Ta'kidlash joizki, maydon atamasi lingvistik terminologiya safiga qo'shilmasdan avval, fizika fani doirasidagi atama bo'lgan. Inson faoliyat yuritgan fanlarning bir-biriga ta'siri natijasida *maydon* tilshunoslikka oid terminga aylangani fanlar integratsiyasining yana bir daliliidir. Qariyb yarim asr vaqt davomida tildagi sistemalarga maydon sifatida yondashish nazariyasini sayqallanib, mazmunan boyib bordi. Turli avlod va turli lingvistik oqim vakillari tomonidan maydon termini turlicha talqin qilindi. Shunday bo'lsa-da, maydonga berilgan barcha tasniflarda umumiylig mujassam ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Maydon lingvistik atama sifatida birinchi marta 1924-yilda nemis tilshunosi Gunter Ipsenning "Qadimgi Sharq va Hind-Yevropa" nomli asarida tilga olingan. Olim o'z ona tilidagi *bedeutungsfeld* ya'ni "semantik maydon" birikmasini qo'llaganidan so'ng ushbu atama keng omma va ilm ahliga yetib bordi. G.Ipsen bu birikmani muayyan tajriba sohasi bilan bog'liq holda ishlatiladigan so'zlar guruhini tavsiflash uchun ishlatgan. Masalan hind-yevropa tillar leksikonida "qo'y" va "qo'y boqish" semantik maydon turlari bunga misol bo'la oladi degan mulohazani taqdim etgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ipsen o'z nazariyasini ilgari surar ekan, "semantik maydon"ni mozaikaga qiyosladi, keyinchalik esa ushbu o'xshatish Gumboldtchilarning sevimli tasvirlash vositasiga aylandi. Ya'ni bu orqali so'zlarning bog'lanishi g'altak iplarining bog'lanishi kabi talqin qilinmasligi, balki butun guruh ichki tuzilishi nuqtai nazaridan bir semantik maydonni ifodalashi uqtiriladi. Mozaikada bo'lgani kabi, so'z ham so'z bilan birlashadi, ularning har biri turlicha shaklga ega bo'lsada, lekin konturlari o'zaro mos keladi. Birgalikda hammasi yuqoriga ko'tarilish tartibida rivojlanib boradi va hech biri mavhum bo'shiqdida yo'q bo'lib ketmaydi. [1,224]

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tilshunoslikda shunday haqiqat bor: fanga biror atamani ilk marta tanishtirgan olim e'tirof etilmasdan, shu yangilikni ommalashishiga, targ'ibotiga sababchi bo'lgan olim sharaflanadi. Buni fan tarixida Kurtenening sistema atamasini avvalroq o'z ilmiy izlanishlarida qo'llagan bo'lsa-da, bu atamanining tilshunoslikda muhimligi hamisha Ferdinand de Sossyur nomi bilan eslanadi. Huddi shuningdek, semantik maydon terminining ilm ahliga yoyilishi va uning natijasida yangi tadqiqot yo'nalishi paydo bo'lgani nemis olimi Adolf Shtorning "Psixologik tasvir orqali mantiq fanidan darslik" kitobida huddi shu ko'rinishda (*bedeutungsfeld*) qayd etilgan. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan venger olimi Stiven Uilman "Semantika: ma'no haqidagi fanga kirish" deb nomlangan kitobida semantik maydonni quyidagicha ta'riflaydi: "Barcha

til birliklari ma'lum bir sohaga bo'linadi, tasniflanadi va har bir element o'z qo'shnilarini chegaralashga yordam beradi va o'zi ham ular tomonidan chegaralanadi". [6,4]

Tilshunoslikda semantik maydon tushunchasini nazariy jihatdan asoslab berish borasida Ipsenning xizmatlari muhim o'rin tutsa-da, ushu terminga amaliy jihatdan yondashgan va hatto Ipsen nazariyasida ham ba'zi g'alizliklar borligini isbotlagan olim Jost Trir hisoblanadi. Dastlab u ham Ipsen tomonidan semantik maydonning mozaikaga o'xshatishini bayroq qilib olib, hamkasbining mulohazalarini o'z ilmiy qarashlari bilan boyitdi. Bir necha yillardan so'ng esa, ular targ'ib qilib kelgan "mozaika"ga mengzash tamoyilida kamchiliklar borligi oydinlashdi. Bu haqiqatni Trirning o'zi ham tan olgan holda, semantik maydonga yangicha yondashuv zarurligini ta'kidladi. Sababi, mozaikada umuman bo'sh qismlar, ya'ni bo'shliq bo'lmaydi. Til sistemasida mavjud hamma semantik maydonlarni esa bo'shliqdan xoli deb ayta olmaymiz. Chunki ob'yektiv borliqda shunday ish-harakatlar yoki tushunchalar borki, ularni tilda akslantiruvchi leksik vositalar mavjud emas. Trir nazariyasiga ko'ra, leksik maydonni tashkil qiluvchi so'zlar yolg'iz holda emas, balki maydonning biror a'zosi bilan oppozitsiyaga kirishsa, ya'ni qarama-qarshi qo'yilsagina ma'no anglata oladilar. Misol sifatida ingliz tilidagi imtihon natijalarini belgilab beruvchi *excellent, good, fair, poor, very poor* kabi sifatlarni olaylik. Insonlar bu leksik qatordagi *poor* so'zining ma'nosini baholash shkalasi beshta darajadan iborat ekanligini bilganlaridagina ajrata oladilar. Bu yerda *poor* leksemasi *fair* va *very pooming* o'tasida, ya'ni quyiyoq o'rinda joylashgan. [5,6]

Garchi ilk maqolasida semantik maydonga bergan ta'riflari ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsada, Ipsen navbatdagi ilmiy maqolasida mazkur atamaga yangicha ta'rif berdi. Unga ko'ra semantik maydon elementlari nafaqat ma'noviy jihatdan birlashadilar, balki shakl va funksional xususiyatlari o'xhashligi bilan ham xarakterlanadilar. [2,18] Olim o'z nazariy qarashlarini Hind-Yevropa tillarida metall nomi ifodalovchilarini amaliy tahlil qilish orqali xulosalaydi. Biroq, keyinchalik esa, Ipsenning ikkinchi xulosasi ham mukammal emasligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni semantik maydo birliklariga ham shakl, ham funksional va ma'no jihatdan bog'liq bo'lish talabi qo'yiladigan bo'lsa, tilda har doim ham bu qolipga tushadigan to'liq xususiyatli maydon elementlari topilmaydi.

Shu o'rinda ochiq va yopiq sistema oppozitsiyasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq sistema tarkibi yangilanib, ya'ni kenagayib turish tabiatiga ega bo'lib, bu turdag'i sistemalar elementlari texnika, ilm-fan rivoji asosida boyib boradi. Biz tadqiq etishga kirishga jinoyat mikrosistemasi ham undagi birlıklarning chegaralanmaganligi va muntazam ko'payib borish jihatlari bilan ochiq sistemalar qatoridan o'r'in egallaydi.

Yopiq sistemalar uchun esa yangi a'zolar qabul qilish xususiyati xos emas va ularning tarkibi ham o'zgarmasdir. Misol tariqasida, ingliz tilidagi predloglarni aytib o'tishimiz mumkin. Bu guruh a'zolari tarkibi allaqachon shakllanib bo'lgan va boshqa yangi predlog uchun tilda ehtiyoj ham sezilmaydi. Shuningdek, bog'ovchilar ham yangi element uchun yopiq guruh, sistema hisoblanadi.

Semiotik ta'limgotlarga ko'ra san'atdagi surrealizm yo'nalishi, she'riyat yoxud paralingvistikadagi yuz ifodalarini alohida sistema sifatida tasavvur etadigan bo'lsak, ular ochiq sistemaga mansub hisoblanadi. Semiotikada "ochiq sistema" tushunchasiga biroz boshqacharoq yondashuv mavjud. Unga ko'ra, sistema elementlari ifodalagan ma'no turlicha bo'lsa, ya'ni bir necha xil talqin qilinsa, demak bu sistema ochiqligi bilan xarakterlanadi. Aksincha, sistema a'zolari faqat bitta, chegaralangan ma'noga ega bo'lsa, bu sistema yopiq sistema deya ta'riflanadi. Semiotik nuqtai nazarga ko'ra arifmetik ishoralar, yo'l-harakati belgilari hamda muhandislik chizmalari yopiq sistemaga misol bo'la oladi.

Ferdinand de Sossyurning struktura terminini ham sistema atamasi bilan yonma-yon qo'llaganligi va unda til sistemasi birliklarining o'zaro munosabati mujassam ekanligini ifodalab bergani ham lingvistika faniga yangi nafas bag'ishladi. Natijada yevropalik tilshunosliklar tilni turli paradigmalar asosida o'rganib, fanga muhim ilmiy yangiliklarni taqdim etdilar. Keyinchalik sistem tilshunoslik dunyoning boshqa burchaklarida ham kurtak ota boshladi.

O'zbek tilshunosligida ham maydon metodi asosiga qurilgan qator ilmiy izlanishlar amalgalashirilmoqda. Mazkur izlanishlarning nazariy assosi sifatida professor Sharifa Iskandarovaning "Til sistemasiga maydon asosida yondashuv" nomli monografiyasini ko'rsatib o'tish darkor. Sh.Iskandarova maydon tadqiqi bo'yicha boshqa ko'plab maqola va risolalar muallifi bo'lib, chin

## TILSHUNOSLIK

ma'noda O'zbekistondagi maydon nazariyasi bo'yicha mактабга asos solgan deya e'tirof etishimiz mumkin. Olima ilmiy izlanishlarini xulosa qilar ekan, quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi:" O'zbek tili leksikasini makromaydon sifatida qaralgani holda, uni mikromaydonlarga ajratish tezaruslar, ideografik lug'atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lingvistik maydon va til lug'at tarkibini bunday maydonlarga ajratishning nazariy asoslarini chuqur, atroflicha o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng dolzarb masalalardan sanaladi". [3,50] Shuningdek, A.Rasulovaning maydon tadqiqiga bag'ishlangan "O'zbek tilining shart va to'siqsizlik maydoni" nomli nomzodlik dissertatsiyalarda ham lingvistik maydon nazariyasining muammoli jihatlari monografik tarzda ochib berilgan.

## XULOSA

Xulosa o'rнida aytish mumkinki, bugungi kunda obyektiv borliqni tilda aks etishini o'rganishda system yondashuv hamda maydon metodi orqali tahsilga tortish o'zining samarali natijalarini bermoqda. Bunday tadqiqotlar tilning bir butun makrosistema ekanligini, undagi til birliklarining hech biri tartibsiz tarzda namoyon bo'lmasligini, ya'ni ular ma'lum bir lisoniy qonuniyatlar ostida munosabatga kirishishlarini isbotlab beradi.

Struktur tilshunoslik, tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri sifatida o'z tarixiga ega. Bunda Gumbold, Sossyur, Kurtene kabi olimlarning qarashlari mazkur yo'nalishni yanada gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Ular taqdim etgan nazariyalar strukturalizm davomchilari uchun zarur mayoq bolib xizmat qildi.

E'tirof etish joizki, systemaviylik prinsipi asosiga qurilgan tadqiqotlar til sistemasining insoniyatga noma'lum qirralarini namoyon qilishga ulkan hissa qo'shdi va bunday izlanishlar ko'lami kun sayin kengaymoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ipsen G. Der alte Orient und die Indogermanen. Heidelberg. 1924. S 224. (Ipsen G. The ancient Orient and the Indo-Europeans. Heidelberg. 1924. P 224)
  2. Ipsen G. Der neu Sprachbegriff. Zeitschrift fur Deutchkunde. 1932. S 18. (Ipsen G. The new language concept. 1932. P 18)
  3. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. Toshkent, Fan. 2007. 50-bet (Iskandarova Sh. Field-based approach to the language system Tashkent. Science 2007. P 50)
  4. Kurbonova B. Til sathlarida lokallikning ifodalanishi. Farg'ona. Qirguli poligrafchi, 2010. 5-bet (Kurbanova B. Expression of localization at language levels. Fergana, 2010. Page 5)
  5. Trier J. Der deutsche Wortschatz. –Marburg, 1928. S 6 (Trier J. The German vocabulary. Oxford. 1962 P 6)
  6. Ullmann S. Semantics: an introduction to the science of meaning. Oxford. 1962. P 4
- Links:
1. <https://en.wikipedia.org/wiki/Semiotics>
  2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Lexical\\_field\\_theory#:~:text=Lexical%20field%20theory%2C%20or%20word,within%20the%20same%20word%2Dfield](https://en.wikipedia.org/wiki/Lexical_field_theory#:~:text=Lexical%20field%20theory%2C%20or%20word,within%20the%20same%20word%2Dfield)